

ABDULLA QAHHORNING “MASTON” HIKOYASIDA KELTIRILGAN FE’LLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Umarova Gulbahor Jumanovna

Qo‘qon DPI o‘qituvchisi

Maxsudova Kumushxon

QDPI boshlang‘ich ta’lim fakulteti I-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy matnni lingvopoetik tahlil qilish, matndagi sintaktik qurulmalar va ularning qo‘llanilishi, so‘z ma’nolari, ayrim fe’llarning matn tarkibida kelishi, lingvopoetik xususiyatlari, ularning badiiy matn mazmuniga aloqasi hamda ahamiyati ko‘rsatib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: adabiyot, so‘z, fe’llar, metafora, o‘xhatishlar, lingvopoetika, obrazlilik.

Аннотация: В этой статье рассматривается лингвопоэтический анализ художественного текста, синтаксические конструкции в тексте и их применение, значения слов, появление в тексте определенных глаголов, лингвопоэтические особенности, их связь с содержанием художественного текста, а также их значение.

Ключевые слова: литература, слово, глаголы, метафоры, сравнения, лингвопоэтика, образность.

Annotation: this article shows the linguistic analysis of the artistic text, the syntactic structures and their applications in the text, word meanings, the arrival of certain verbs in the context, the linguistic features, their relationship to the content of the artistic text, as well as their importance.

Keywords: literature, words, verbs, metaphors, metaphors, analogies, linguopoetics, figurativeness.

Badiiy matn muallifning idiolektiga ko‘ra tilning tasvir imkoniyatlarini o‘zida mujassam etgan, o‘quvchiga estetik ta’sir etish xususiyatiga ega bo‘lgan murakkab butunlikdir. Shu jihatdan kelib chiqqan holda asarda ta’sirchanlik birinchi o‘ringa chiqadi. Bu holni biz sevimli o‘zbek adibi, yuksak so‘z san’atkori Abdulla Qahhor asarlarida ham ko‘rshimiz mumkin.

Adibning “Maston” hikoyasida keltirilgan quyidagi parchaga e’tibor qaratamiz.

G‘irillab turgan issiq dasht shabadasi kalta ko‘k kamzul ostidan chiqib turgan etagini pirpiratadi, oftobda qoraygan bo‘yniga, chakkasiga ter bilan yopishib, sochlarini tortqilaydi. [1.261]

Keltirilgan misolda tortqilamoq fe’lini asarda kelishini lingvopoetik tahlilga tortamiz. Tortqilamoq fe’lining “O‘zbek tilining izohli lig‘ati”da quyidagicha izohi berilgan.

Tortqilamoq 1. Hadeb tortavermoq; tartibsiz ravishda har tomonga tortmoq, tortib-tortib qo‘ymoq, har tomonga tortib to‘zg‘itmoq. Etagidan tortqilamoq. Isfandiyor Avazning yoqasidan tortqilab hamon baqirardi.

2.Talab, har tomonga olib ketmoq, o‘ziniki qilish uchun harakat qilmoq. Adolat qopchig‘ini ochdi. Unda angishvonadan tortib, ip, ipaklargacha bor edi. Qizlar o‘z buyumlarini tanib, uni bir boshdan tortqilay boshladilar. [2.157] Izohli lug‘atda berilgan ma’lumotlardan ko‘rinadiki, bu o‘rinda tortqilamoq fe’li birinchi ma’noga (hadeb tortavermoq,tartibsiz ravishda har tomonga tortmoq) ma’nosiga mos keladi. Adib issiq dasht shabadasi Mastonni sochlarini tortqilaydi deya shaxsga xos bo‘lgan harakatni shabadaga ko‘chirib go‘zal va obrazli tasvir vositasini o‘quvchi ko‘z oldida gavdalantira olgan.

Agar bu qumlar, irg‘ayzorlar orasida adashilsa, umr bo‘yi yurib ham chiqib ketib bo‘laydi. Agar shamol qo‘zg‘alsa, qum tiriklay ko‘madi. [1.262]

“O‘zbek tili izohli lug‘ati” da ko‘mmoq fe’lining ma’nosи quyidagicha:

Ko'mish.1.Ko'mmoq. Bog'larda uzum, olma, noklar yig'ishtirilib olingan, toklar ko'mish uchun tayyorlanmoqda.

2. Dafn marosimi. U [Adolat] Zumradning o'limiga sira-sira chidayolmasdi. Uni ko'mish uchun to'plangan odamlar bilan mahallasi tomonga ketar ekan, ko'z yoshini tiyolmas, sekin-sekin ho'rsinib borar edi. S.Zunnunova, Gulxan. [2.456.]

Yuqoridagi izohlardan ko'rindiki, ko'mmoq fe'li bu gapda lug'atda ifodalangan ikkinchi ma'noga mos keladi. Yozuvchi shaxsga xos harakatni mohirlik bilan qumga jonsiz predmetga ko'chirgan.

Yana bir fe'lning lingvopoetik tahliliga e'tibor qaratamiz. Oftob g'arbga yonboshlaganda ikki yo'lovchi dashtdan chiqib, tepalikka yo'l oldi. [1.263] Bu gapdagi yonboshlamoq fe'lining o'z va ko'chma ma'nolari "O'zbek tilining izohli lug'ati"da quyidagicha berilgan.

Yonboshlamoq. 1. Bir yonbosh bilan tirsakka tayanib yotmoq. Yormat boshini ko'tardi, bir qo'lini yerga tirab yonboshladi. Oybek, Tanlangan asarlar.

2.Yon tarafga og'moq ; egilmoq, qiyshaymoq. Devor yonboshladi.

3. Poet. Bota boshlamoq (oy,quyosh haqida) Oy g'arbga tomon yonboshladi.

J.Sharipov, Saodat [2.48]

Izohlardan ko'rindiki, yonboshlamoq fe'li asarda bota boshlamoq ma'nosida kelgan. Adib quyosh botdi desa ham bo'lar edi, ammo fikrni ta'sirchan ifodalash uchun shaxsga xos harakatni mohirlik bilan predmetga (oftobga) ko'chirgan oftobni jonlantirgan. "Jonlantirish badiiy nutqda obrazlilik baxsh etuvchi muhim vositalardan biridir". [3.79] Natijada ma'no ko'chishining bir turi metafora (harakat o'xshashligi) yuzaga kelgan.

Yuqoridagilardan ko'rindiki, Abdulla Qahhor o'z asarlarida o'quvchiga nafaqat tarbiyaviy bilim , balki unga voqelik va qahramonlarni obrazli tasvirlash orqali estetik zavq ham ulasha olgan.

Foydalanimanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdulla Qahhor. Asarlar 1-jild G'. G'ulom 1987-yil, 261-263-betlar.
2. "O'zbek tilining izohli lug'ati" 5 jildli, "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent 2020-yil.
3. M. Yo'ldoshev. Badiiy matn lingvopoetikasi - Toshkent, Fan, 2008-yil, 79-bet.
4. Mirhojjiddinovna, J. D., Shavkatovna, A. M., & Alijonovna, M. D. (2022). Lingupoetic Features Of Unconventional Combinations And Agricultural Terms In Literary Texts. Journal of Positive School Psychology, 6(11), 1599-1604.
5. Abdulkhayeva, M. The Role of Dictations in the Development of Students' Written Speech in the First Class. International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
6. Musharrafa, A. (2023). Relationship of Mother Language and Reading Literacy with Natural Science. World of Science: Journal on Modern Research Methodologies, 2(3), 78-82.
7. Abdulkhayeva, M. (2023). ONA TILI VA O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA DIDAKTIK METODLARNING TUTGAN O 'RNI. Scienceweb academic papers collection.
8. Mirhojjiddinovna, J. D., Shavkatovna, A. M., & Alijonovna, M. D. (2022). Lingupoetic Features Of Unconventional Combinations And Agricultural Terms In Literary Texts. Journal of Positive School Psychology, 6(11), 1599-1604.
9. Dilafruz, M. (2022). BOUNDARY ISSUE IN THE TERMINO SYSTEM. Gospodarka i Innowacje., 159-161.
10. Alijonovna, M. D. (2023). Terms-language wealth. INTERNATIONAL JOURNAL OF INCLUSIVE AND SUSTAINABLE EDUCATION, 2(3), 58-62.
11. Alijonovna, M. D., & Gozalkhan, Y. (2022). IMPLEMENTATION OF INTERDISCIPLINARITY IN THE TEACHING OF READING AND NATURAL SCIENCES. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(12), 1628-1632.
12. Alijonovna, M. D. (2022). THE ROLE OF TERMS IN LINGUISTICS. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, 9, 144-152.
13. BADIY MATNDA QISHLOQ XO'JALIGIGA OID TERMINLARNING USLUBIY XOSLANISH IMKONIYATLARI
MD Alijonovna Qo'qon DPI. Ilmiy xabarlar 3, 169-174

14. Жамолиддинова, Д. (2009). Бадий нутқда парантез бирликларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари: Филол. фан. номз... дисс. автореф. Диссер автореферат. Тошкент.
15. Jamoliddinova, D. M. (2020). TERMINOLOGY AND PROFESSIONAL VOCABULARY. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(10), 294-298.
16. Jamoliddinova, D. M. (2011). Semantic-grammatical and lingvopoetic features of parentheses units in artistic speech. Tashkent: Fan, 93.
17. Джамолиддинова, Д. М. (2020). ТЕРМИН ВА СЎЗНИНГ ФАРҚЛИ ХУСУСИЯТЛАРИ. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(5).
18. Jamoliddinova, D. (2020). The poetical actualization of terms in the literary works (As the sample of the works of askad mukhtar, abdullah kahhor and ulmas umarbekov). International Journal of Psychosocial Rehabilitation, 24(6), 2597-2602.
19. Жамолиддинова, Д. М., & Тожибоева, Ш. Р. (2016). THE SEMANTIC AND GRAMMATICAL PROPERTIES OF PARANTEZ. Учёный XXI века, (4-1 (17)), 67-68.
20. Toshpo'latovich, Y. O. (2022). THE IMPORTANCE OF USING NON-STANDARD TEST TASKS IN MONITORING STUDENT KNOWLEDGE. *Open Access Repository*, 9(11), 44-53.